

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.P.Jurayev

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida yer egaligi tizimi va uning o'ziga
xos jihatlari.....285

Sh.Sh.Jumayev

Farg'ona viloyatidagi yevangel xristian baptistlar jamoasi tarixi va bugungi kundagi
faoliyati293

K.Abdurakhmanova, M.Jurabekova

Reflection of folk medicine in the elements of primitive religion
(the example of Jizzakh)297

ADABIYOTSHUNOSLIK**S.Mirzaeva, N.Y.Usarova**

A comparative analysis of the characters of king Arthur and Alpomish in english and
uzbek folklore literature301

A.G.Sabirdinov

Jadidchilik, muxtoriyat, mustaqillik307

G'.O.Xolbutayev

Askiya-so'z san'ati, hozirjavoblik va zukkolik mahorati310

O.Barziyev, F.Baxtiyor

Sayohat taassurotlari bilan bog'liq poetik turkumlar tasnifi317

S.A.Xodjayev

Folklor namunalarida uchlik timsoliga asoslangan ramzlar323

H.K.Сабиров, В.А.Гиёсова

Движение джадидизм и узбекская детская литература326

G.Ch.Muratova

G'.G'ulomning "Shum bola" qissasida qahramon ruhiy olami tasviri329

TILSHUNOSLIK**N.R.Gafurova**

O'zbek va ingлиз tillaridagi o'zlashma so'zlar va neologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari333

Q.Sh.Kaxarov, D.M.Dehqonova

O'zbek va ingлиз tillarida iboralarning qo'llanishi338

Y.E.Ro'ziboyeva

Ingliz va o'zbek tillaridagi estetik qadriyatlarni ifodalovchi maqollarning
lingvakulturologik xususiyatlari341

N.R.Gafurova

Neologizmlarning tarjimada ifodalanishi va o'ziga xos xususiyatlari344

M.G.Khoshimov

Problems of general and typological theory of composite sentence with a parenthetical
clause as an invariant type of syntactic unit347

D.M.Yuldasheva, M.A.Ermatova, N.U.Abdumalikova

Jahon tilshunosligida matn taddiqi haqida354

M.M.Aslonov

The educational process and content of educational activities in the
"House of Bukhara education"358

Z.V.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi forsiy sinonimlar xususida362

G.R.Mamadalieva

Ingliz va o'zbek tillarida "Foot/Oyoq" leksemalarining semantik tahlili367

P.Sh.Kaxramonova

Badiiy asar tili va ekolingvistika373

H.U.Davlatova

Muloqotning nazariy asoslari hamda sohaga oid qarashlar376

H.U.Davlatova, H.Abdurahmonova

Milliy muloqot kompetensiyasini shakllantirish omillari380

Z.V.Alimova, M.Rasulova

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ESTETIK QADRIYATLARNI IFODALOVCHI
MAQOLLARNING LINGVAKULTUROLOGIK XUSUSIYARTLARI**

**LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF PROVERBS EXPRESSING AESTHETIC
VALUES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

**ЛИНГВОКУЛЬТУРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОСЛОВИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ
ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ЦЕННОСТИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

Ro'ziboyeva Yulduz Erkin qizi¹

¹Geografiya fanlari universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi estetik qadriyatlarni va madaniyatni aks ettiruvchi maqollarning lingvamadaniy xususiyatlari yoritib berilgan. O'zbek va ingliz maqollarini solishtirgan holda ikki tilning madaniy xususiyatlari bir-biri bilan qiyoslanganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu maqolada bu ikki til maqollarini solishtirishda chog'ishtirma va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Maqolada ko'plab xalq og'zaki ijodi namunalaridan misollar keltirilgan va ularning tarjimasi solishtirilib ikki tilning madaniyati solishtirilgan. Ikki tilning madaniyatini solishtirish natijasida o'xshash jihatlari va farqli jihatlari ko'pligi nomoyon bo'ldi. Tarjima qilish jarayonida so'zlarning ma'nolari o'zgarishga uchraganligi yaqqol namoyon bo'ldi.

Аннотация

В данной статье описаны лингвокультурные особенности пословиц английского и узбекского языков, отражающие эстетические ценности и культуру. Сравнивая узбекские и английские пословицы, мы видим, что культурные особенности двух языков сравниваются друг с другом. В данной статье для сравнения пословиц этих двух языков были использованы методы сравнительного и сопоставительного анализа. В статье приводятся примеры многих пословиц народного устного творчества, сравниваются их переводы, сравниваются язык и культура двух языков. В результате процесса сравнения языка и культуры двух языков многие сходства и различия стали незаметными. Стало очевидно, что в процессе перевода значение слов изменилось.

Abstract

This article describes the linguistic and cultural characteristics of proverbs in English and Uzbek languages that reflect aesthetic values and culture. By comparing Uzbek and English proverbs, we can see that the cultural characteristics of the two languages are compared to each other. In this article, comparative and contrastive analysis methods were used to compare the proverbs of these two languages. The article gives samples of many examples of folk oral creativity and compares their translations and compares culture of the two languages. As a result of comparing the language and culture of the two languages, many similarities and differences became invisible. It became obvious that the meaning of the words changed during the translation process.

Kalit so'zlar: maqol, estetik qadriyat, madaniyat, paremiologiya, madaniy qiyoslash, lingvamadaniylik, xalq janri.

Ключевые слова: пословица, эстетическая ценность, культура, паремиология, культурное сравнение, языковая культура, фольклорный жанр.

Key words: proverb, aesthetic value, culture, paremiology, cultural comparison, linguistic culture, folk genre.

KIRISH

Har bir millatning maqollari xalqlarning o'tmishdan to hozirgi kungacha bo'lgan axloqiy-madaniy qadriyatlari, e'tiqodlari, urf-odatlari va an'analarini o'zida mujassam etgan madaniy xazinasidir. Tilning eng kata boyliklaridan biri bo'lgan maqol shu millatning madaniyati, ma'rifati, urf-odatlari va qadriyatlarini yaqqol nomoyon etuvchi mabadir.

Maqollar ingliz va o'zbek tillarining juda ko'p qismlarini tashkil etadi. Ular bir-biridan semantik, strukturaviy, stilistik va hatto pragmatik jihatdan ham farq qiladi. Maqollar millat madaniyatining ko'plab kamchiliklarini qamrab oladi. Maqollar mavjud bo'lgan til madaniyatini tavsiflash, aniqlash va ifodalashga xizmat qiladi. Tilning paremiologik fondida milliy tushunchalar, narsalar, hissiyotlar, urf-odatlari, taniqli ajdodlar, hatto joy nomlari – madaniy nuqtalarni ko'rish mumkin. "Do'stlik" tushunchasi bilan bog'langan ingliz va o'zbek maqollari millatning mentaliteti, madaniyati va urf-odatlarini aks ettiradi va ushbu millat madaniyatida muhim o'r'in tutadi. [1]

V.G.Belinskiyning yozishicha (G.Salomov, 1961-yil 34-bet) tarjimasi bir xalqning boshqa xalqqa adabiy ijodi o'zaro bog'lanish, almashish nuqtalariga olib keladi. Boshqa tomonidan, to'g'ridan-to'g'ri adabiy asarlarda maqolni tarjima qilish uslubga yomon ta'sir qilishi mumkin.

V.G.Belinskiy adabiy san'at qanday bo'lgan bo'lisa, shunnday tarjima qilish kerakligini ta'kidladi. So'z qo'shmasdan va qoldirmasdan asl ma'nosini saqlagan holda tarjima qilish maqsadga muvofiq. G'aybull Salomov, qo'llab-quvvatlagan holda uning fikricha, tarjima qilish oddiy emas, balki ijodiy ish ekanligini qo'shimcha qildi. Aniqlik va tarjimadagi ijodkorlik bir-birini to'ldirishi, bir-biridan ajralib turishi kerak. Biroq, ba'zi hollarda ulardan biri bo'lishi mumkinligini yodda tutish kerak. [2]

Maqollar o'z tabiatiga ko'ra xalq janri hisoblanadi. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'limgan xalqning o'zi yo'q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. Shuning uchun ham turli xalqlar **og'zaki** ijodida mazmun va shakl jihatidan bir-biriga yaqin hamda hamohang maqollar ko'p uchraydi. Chunki har bir xalq hayoti va tarixida juda ko'p o'xshashliklar, umumiyliliklar mavjud. Masalan o'zbek xalq maqollaridan biri: "**Boy boyga boqar, suv soyga oqar**" maqolini jamiyatning qaysi davrida va qanday sinf vakillari tomonidan aytiganligini anglash bir qarashda qiyin. Agar maqol mehnatkash xalqning nutqida qo'llanilgan bo'lisa, u shu sinf manfaatlari xizmat qiladi yoki aksincha, ingliz maqollaridan "**A fool's bolt is soon shot**" maqolini ko'rib chiqsak. Maqolning tarjimasi- **ahmoqning kamon o'qi tezda otilar**. O'zbekcha muqobil varianti "**Ahmoqning boshiiga aql yopishtirib qo'ysang, qo'li bilan ko'chirib tashlaydi**". Agar tarjimadan kelib chiqadigan bo'lsak maqolni uzoq o'tmishda yaratilganligiga shubhamiz yo'q, albatta. Chunki unda ishlatilgan "**bolt**" ya'ni "**kamon o'qi**" o'tmishda, urush davrlarida yaratilgani sezilib turadi.[3]

Masalan do'stlik haqidagi misollar yordamida ushbu ikki tildagi maqollarning lingvamadaniy xususiyatlarini tahvil qilaylik. "Do'stlik" tushunchasi "oila", "sog'liq", "boylik" va "mehnat" kabi ijtimoiy tushunchalar qatorida sodir bo'ladigan inson hayotida qimmatli mavhum tushunchadir. Maqollarni so'zma-so'z tarjima qilish boshqa tillarda maqollarning ma'nosini ifodalash uchun yetarli emas, chunki ularning mazmuni tarjima qilingan va tilda mavjuddir. Bu maqolning asosiy ma'nosini noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ingliz va o'zbek tillarida maqollarning ekvivalentlarini topish usuli ushbu tillardagi do'stlik haqidagi maqollarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish uchun ishlatiladi.[4]

Shu bilan birga, ma'lum bir tildan ikkinchi tilga berilgan o'girishlarda maqollarning aynan o'xshashini topish qiyin bo'ladi. Shunda izohlarga yoki ikkinchi bir muqobil variantga murojaat qilinadi. O'zbek tilidagi maqollarning ingliz tilida yoki ingliz tilidagi maqollarning o'zbek tilidagi muqobil variantini topish ancha mushkul, bu borada maqollarga o'rni kelganda izoh berib o'tish tarjimaga putur yetkazmaydi, balki uni to'ldiradi va boyitadi.

So'zlaguvchi nodon bo'lisa, eshitguvchi dono bo'lsin maqolinining aynan nusxasi ingliz tilida yo'q bo'lgani holda bu maqolni uning yaqinroq ekvivalenti bilan berish mumkin, lekin ushbu maqolni "**If speaker is fool listener should be wise**" deb tarjima qilinsa uning o'zbekcha ma'nosini saqlanib qoladi va bu hammaga tushunarli bo'ladi.[5]

Raqamsiz ba'zi ingliz maqollarida raqamli elementlar mavjud. Uzbek ekvivalentlari: **Be up with the Lark- Uch kun barvaqt turgan bir kun yutar; har bir qiyinchilikning rohati bor**. O'z navbatida boshqa ingliz maqollarida o'zbek tilida raqamlar mavjud emas: **Peg or two — Kekkayan yigitning gerdayishini ishida ko'r**.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolada ko'plab olimlar professorlar tomonidan yaratilgan ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan. Bu adabiyotlarda ikki til misolida: ingliz va o'zbek tillari maqollaridagi lingvamadaniy xususiyatlarning turli jihatlari ochib berilgan. Shu jumladan, D.D.Abdurahmonovning "Same correspondence sites of proverbs in English and Uzbek languages" (Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarning o'xshash jihatlari) kitobida ikki xalq maqollarining bir xil jihatlari ochib berilgan. U.K.Kuranboyevaning "Ingliz va o'zbek maqollarining lingvakulturologik va semantik xususiyatlari" kitobida esa farqli jihatlarini va madaniyatlarning bir-biriga chambarchas bog'liqligini ko'rish mumkin.

Ushbu maqolada ilmiy metodlar chog'ishtirma va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Ikki millat maqollaridagi har bir jihatini bir-biri bilan solishtirib o'rganish uchun qiyosiy tahlil metodi katta ahamiyatga ega. Butun bir maqol yoki undagi so'zlarning alohida xususiyatlarini ochib berishda bu metoddan unumli foydalanildi. Chog' ishtirma metodidan esa bog'liqlik jihatlarini ochib berishda unumli foydalanildi. Masalan bir-birlariga ma'no va stilistik vazifa jihatidan mos bo'lgan maqollar so'z tartibida kamdan-kam mos bo'lisa, sonda kamdan-kam farq qiladi, leksik tarkib jihatidan farq qiladigan muqobil variantlari bor. Ularning ko'pchiligi shaklan milliy, mazmunan baynalmilaldir. Ular shakli bilan o'zlarining

TILSHUNOSLIK

muayyan milliy tilga mansubliklarini tasdiqlasalar, mazmuni bilan jahon madaniyati va sivilizatsiyasi mahsuli ekanligini namoyon qiladi.

Pigeon's milk	Anqoning urug'i
Every dog is a lion at home	Har kim o'z uyida bek
All bread is not baked in one oven	Besh qo'l baravar emas
No pleasure without pain	Gul tikansiz bo'lmas

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bu maqolani yozish jarayonida mavzu yuzasidan ko'plab izlanishlar olib borildi va natijada ingliz va o'zbek tillari xalq ijodiyoti maqollarga boy ekanligi nomoyon bo'ldi. Maqollar ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinganda ikki xil yo'naliш borligi aniqlandi, ya'ni so'zma-so'z tarjimadan kelib chiqqan ma'nosi va butun bir maqolning tarjmasining ma'nosi umuman bir -biridan farq qiladi. Masalan "Pigeon's milk" maqolining o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjimasida "cho'chqa suti" ma'nosi kelib chiqadi. Lekin O'zbek tilidagi maqollar bilan solishtiradigan bo'lsak ma'no jihatidan "Anqoning urug'" maqoliga to'g'ri keladi. Shu jumladan, ilmiy izlanish jarayonida maqollarning lingvamadaniy jihatlari haqida ham ko'plab bilimlar egallandi.

Maqollarni chuqurroq tahlil etish va ularning turli tillardagi milliy-ma'daniy hamda umumbashariy qadriyatlarini aks etishi orqali o'rganish hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb muammosi bo'lib kelmoqda. Qiyo slab o'rganadigan bo'lsak, dunyodagi barcha tillar o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin va aynan shu fenomen turli tillarni bir-biridan ajratadi. Lekin shu narsa ma'lumki, til o'rganuvchilar o'ziga begona bo'lgan tilni ona tili va shu til o'tasida ma'lum bir bog'liqlik asosida o'zlashtiradi. Bu tillar ma'lum bir kategoriyalardan ostida birlashadi. Bu kategoriyalarda grammatik kategoriyalardan, leksik-semantik kategoriyalardan, funksiyonal kategoriyalarda o'xshagan lisoniy belgilarni kiradi. Demak, umumlashtiruvchi kategoriyalardan tillardagi universallikni ta'minlaydi. Shu asnoda, maqollar har bir tilda uchraydigan o'ziga xos til birligi ekan, ularda ham umumiylilik mavjud. Shu haqda G. L. Permiakov quydagicha fikr yuritadi: holatlarni umumiylashtirish xususiyati ya'ni bir xil yoki o'xshash holatlarni birlashtirish turli xalqlar maqollarida uchraydi. Maqollardagi shu bir xillik universallikni ta'minlaydi va ko'p holatlarda alohida mantiqiy ma'noga ega bo'ladilar. Bundan kelib chiqadiki, maqol dunyosi jahon sivilizatsiyasi bilan bog'liqidir, uni faqat bir millatga tegishli deyish mutlaqo noto'g'ri. Maqollardagi universallik paremiologiyaning asosiy qirrasi bo'lib, u maqollardagi o'xshash va bir xil holatlarni umumlashtiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, til o'rgatish mактабдан boshlangan bo'lishi kerak. Maqol va matallardan ta'llim-tarbiya jarayonida foydalanimli lozim. Ular bir xil fikrni turli so'zlar bilan ifodalashga yordam beradi; ular dialogik va monologik nutqni go'zallashtirishda, uni betakror qilishda muhim ahamiyatga ega. Ingliz tili ham, o'zbek tili ham boy maqollarga deyishimiz mumkin. O'zbek maqollarida ingliz maqollariga qaraganda ko'proq sonlar mavjud.

Pragmatik masalalarga kelsak, paremiologiya ushbu masala bilan shug'ullanadi. Ushbu maqola yo'naliш, barcha batafsil farqlarga qaramay, asosan o'z kontekstidagi maqolga, matn sifatida kamroq maqolga to'xtalgan: darhaqiqat, maqollar matnda kontekstual va vaziyatga bog'liq holda o'rganiladi. Paremiologik – bu yo'naliш bo'yicha tadqiqotlar, albatta, oddiyroqdan ko'ra ancha aniqroq muhokama qilingan. Maqollarning bilvosita nutqiy harakat ekanligini bildirish, balki ijtimoiy va madaniy munosabatlari ifoda etishi batafsil tahlil qilingan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M.Boyxanov "Uzbek translations of some english proverbs and translation problems" Mental Enlightenment Scientific-Methodological Sh Journal 2022, 79-bet
2. O'.K.Axmedova "Ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik va semantic xususiyatlari" Urganch 2014, 14-bet
3. M.Y.Mirzaaxmedova "Ingliz va o'zbek tillarida maqollarning milliy-madaniy va universal xususiyatlari" Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences journali 2021, 276-bet
4. X.Berdiyorov, R.Rasulov "O'zbek tilining paremiologik lug'ati" Toshkent "O'qituvchi" 1984, 38-50 betlar
5. Anna Borowska "Introduction to Paremiology: A Comprehensive Guide to Proverb Studies" Hrisztalina Hrisztova-Gotthardt, 2014, 70-72 betlar
6. To'ra Mirzayev "O'zbek xalq maqollari" www.ziyouz.com kutubxonasi

NEOLOGIZMLARNING TARJIMADA IFODALANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ВЫРАЖЕНИЕ И СПЕЦИФИКА НЕОЛОГИЗМОВ В ПЕРЕВОДЕ

THE EXPRESSION AND SPECIFICITY OF NEOLOGISMS IN TRANSLATION

Gafurova Nodira Ravshanovna¹

¹Farg'ona davlat universiteti ingliz tili kafedrasi dotsenti v.b., Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada neologizmlarning tarjimada ifodalanishi va o'ziga xos xususiyatlari o'rganilib chiqilgan. O'zbekiston mustaqilligini qo'iga kiritgan dastlabki yillardanoq ta'lif tizimiga katta e'tibor qaratdi. Shu jumladan xorijiy davlatlar bilan aloqalar o'rnatib, ularning tili, madaniyati, san'atini o'rganishga kirishdi. Yangi so'zlar yoki neologizmlar bizning ijodiy tasavvurimiz tomonidan zarb qilinadi va kundalik muloqot orqali tilda mustahkamlanadi.

Аннотация

В данной статье изучаются выражение и особенности неологизмов в переводе. С первых лет независимости в Узбекистане большое внимание уделялось системе образования. Среди них он установил связи с зарубежными странами и начал изучать их язык, культуру и искусство. Новые слова или неологизмы создаются нашим творческим воображением и закрепляются в языке в ходе повседневного общения.

Abstract

In this article, the expression and specific features of neologisms in translation are studied. Since the first years of independence, Uzbekistan has paid great attention to the education system. Among them, he established relations with foreign countries and began to study their language, culture, and art. New words or neologisms are forged by our creative imagination and reinforced in language through everyday communication.

Kalit so'zlar: Til, ma'naviyat, madaniyat, lingvistika, lingvokulturologik, soha, termin, tadqiqot, zarurat, o'rganish, neologizm, kommunikatsiya, zamon, yoshlar, rivojlanish.

Key words: Language, spirituality, culture, linguistics, linguocultural, field, term, research, necessity, learning, neologism, communication, time, youth, development.

Ключевые слова: Язык, духовность, культура, лингвистика, лингвокультурология, область, термин, исследование, необходимость, обучение, неологизм, общение, время, молодость, развитие.

KIRISH

Xorijiy tillarni chuqur o'rganishni tatbiq etish birinchi prezidentimiz I.A.Karimov davridayog hamjamiatga keng yoyilgan. Bunga misol qilib PQ-1875-son "Chet tillarini o'rganish tizimini yanda takomillashtirish chora tadbirdi to'g'risida"gi qarorni oladigan bo'lsak "Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish..." pirovard maqsad qilib belgilangan [1;26]. So'nggi yillarda esa xorijiy tillarni o'rganish yangi O'zbekistonda yangi bosqichga chiqib, siyosat darajasiga ko'tarildi. Xususan, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 19.05.2021-yilda PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirdi to'g'risida"gi qarori ishlab chiqildi. Unga muvofiq Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etildi va shu bilan bir qatorda yoshlarga tillarni o'rganish uchu qator shart sharoitlar yaratildi [2;2]. 2022-2026-yillarga mo'ljalangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi prezident farmoniga ko'ra Yangi O'zbekistonda ta'lif sifatini oshirish bo'yicha bir qator vazifalar belgilab qo'yildi [3;23]. Bundan ko'rindaniki yurtimizda kundan kunga xorijiy tillarga bo'lgan e'tiborning ortishi, shu jumladan, ingliz tilining keng ko'lamda o'rganilishiga zamin yaratyapti.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Til – har doim yangiladigan va dinamik rivojlanadigan hodisadir. Til-bu inson faoliyati sohasi bo'lib, u birinchi navbatda inson hayotida ijtimoiy, siyosiy va boshqa o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Eng intensiv o'zgarishlar leksik darajada sodir bo'ladi, chunki bu til muhitidagi o'zgarishlarga javob beradigan eng mobil quiy tizimdir. Til jamiyat, jamiyatda sodir bo'ladigan o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqidir. Tilning leksik darajasi, bir tomonidan eng harakatchan va o'zgarishga moyil bo'lsa ikkinchi tomonidan, aniq tuzilgan, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni yaqqol aks ettiradi. Shuning

TILSHUNOSLIK

uchun ham tilshunoslar uchun til hamjamiyati tarixidagi burilish nuqtalarida lingvistik va leksik o'zgarishlarning yo'naliшlarini kuzatish juda muhimdir. Tadqiqotning dolzarbligi, qiyosiy tilshunoslik nuqtai nazaridan so'nggi yillarda o'zbek va ingliz tillarida yuzaga kelgan neologizmlar tizimini o'rganish zarurati bilan belgilanadi.

Zamonaviy so'z boyligimiz, til va nutqimiz tez o'zgarmoqda, bu o'zgaruvchan hayotning har bir jabhasida o'z ifodasini topmoqda. Yangi ixtiolar va yangi kashfiyotlarga nom berish va buning uchun yangi hodisaning mohiyatini aynan ifoda etadigan so'zlarni tanlash kerak. Yangi so'zlar yoki neologizmlar bizning ijodiy tasavvurimiz tomonidan zarb qilinadi va kundalik muloqot orqali tilda mustahkamlanadi.Ular doimiy va cheksiz paydo bo'lib, shu bilan tilning lug'atini to'ldirish va boyitishning asosiy usullaridan biriga aylanadi. Sanoatning rivojlanishi, texnikaning rivojlanishi, yangi ixtiolar 19-asr oxiri – 20-asr boshlarida yangi atamalarning (kino, televideeniye, starter) paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Katta ijtimoiy siljishlar (mashina, bank, sarmoya) davrida ko'p sonli neologizmlar paydo bo'ldi. Fransiyada burjua inqilobidan keyin byurokratiya, inqilob, rejim, terrorizm kabi so'zlar paydo bo'ldi. Birinchi jahon urushidan keyin qoralash, kamuflyaj, havo hujumi kabi neologizmlar paydo bo'ldi. Ikkinci jahon urushidan keyin tilga H-bomba, UNO, sovuq urush kabi so'zlar kirib keldi. Ammo hozirgi o'zbek tilining holatini tahlil qilish va uning leksik neoplazmalarini o'rganishga bag'ishlangan asarlar soni unchalik ko'p emas, lekin bu muayyan ko'rib chiqish, umumlashtirish va tizimlashtirishni talab qildi.

Neologizmlar, ayniqsa, yangi madaniy kontekstni topgan ixtirolarni, yangi hodisalarni yoki eski g'oyalarni aniqlashda foydalidir. Umuman olganda, neologizmlar zamonaviy fan va texnikaning jadal rivojlanishi, siyosiy kurashlar, ijtimoiy odatlarning o'zgarishi, iqtisodiy taraqqiyot va boshqa hodisalar hosilasida kelib chiqadi. Biroq, yangi ma'no kasb etgan eski so'zlar ham neologizmlar deb hisoblanadi. Hozirgi vaqtida neologizmlarni aniqlashning umumiyo mezoni belgilash mumkin. Shunday qilib:

- 1) neologizmlar - ilgari uchramagan va yaqinda shakllangan va hozirda keng tarqalgan so'zlar;
- 2) neologizmlar - ma'lum vaqt ichida ona tilda so'zlashuvchilar orasida keng tarqalib ketgan va hozirgi kungacha o'z qo'llanish doirasini yo'qotmagan so'zlar;

3) neologizmlar yangi ma'nolarni anglatuvchi eski so'zlardir;

E.V.Rozen neologizmning turli ta'riflarini tahlil qilib, ushbu tushunchaga quyidagi ta'rifni beradi: "Neologizmlar - bu ona tilda so'zlashuvchilarning lingvistik ongida yangi sifatida belgilangan vaqt davomida tilda yangi tashkil etilgan har qanday so'zlar. Shuning uchun neologizmlar tilda mavjudligining dastlabki bosqichida barcha so'zlar deb ataladi. Ya'ni, so'zning yaqinda paydo bo'lishi, uning yangiligi va bu lahzalarning ona tilda so'zlashuvchilar ongida aks etishi dolzarb bo'lgan bosqichda" [4;53]. A.A.Xadeeva-Bykova neologizmga quyidagi ta'rifni beradi: "Neologizmlar deganda shakl va mazmun jihatdan yangi, ma'no jihatdan monosemantik bo'lgan va tilda vaqt-vaqt bilan paydo bo'ladigan so'zlarni tushunamiz" [5;112]. Demak, bu asardagi neologizmlar deganda tilda amalda bo'lgan so'z yasalish modellari va qonuniyatlariga ko'ra shakllangan yoki boshqa tildan o'zlashtirilgan siyosiy, ilmiy yoki umumiyo xususiyatni ifodalovchi leksema va voqelevning yangi tushunchalarini bildirish uchun yaratilgan yangi so'z va iboralar tushuniladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hozirgi o'zbek tilshunosligida yangi so'z va ma'nolarni belgilash uchun "neologizm" atamasi qo'llaniladi. Professor X.Majidov neologizmni alohida leksik kategoriya sifatida ajratmaydi va uni yevropaismlar bilan uyg'unlashtiradi [6;19]. Lekin ma'lumki, o'zbek tilining neologizmlari faqat yevropoizmlardan iborat emas, shuning uchun har bir leksik kategoriyanı ko'rib chiqishda ularning neologik belgilarini alohida ajratib ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash kerakki,neologizmlar qoida tariqasida, mavjud til an'analari asosida, tilda mavjud so'z yasalish vositalaridan foydalangan holda paydo boladi.

Fan va texnikaning turli sohalarida ishlataladigan atamalar neologizmlarning katta qismini tashkil qiladi. Yangi so'zlar faqat tushuncha bo'laklariga tegishli: otlar, fe'llar, sifatlar va boshqalar. Neologizmlar yangi yaratilgan leksik birliklar yoki yangi ma'noga ega bo'lgan mavjud leksik birliklar sifatida ta'riflanishi mumkin. Binobarin, turli lug'atlar va kitoblarda neologizmning turli xil ta'riflari mavjud. Neologizmlarning vazifasi ma'lum bir vaziyatga xizmat qilishdan iboratdir.

Neologizmlarni quyidagilarga bo'lish mumkin:

- a) rasmiy (formal) - mutlaqo yangi so'zlar. Bular kamdan-kam uchraydi - locus classicus. Agar ular asl bo'lsa, ular transkripsiya qilinishi va yaqinda yaratilgan bo'lsa, qayta nomlanishi kerak. Tovar nomlari transkripsiya qilinishi yoki ularning TL brend nomlari berilishi kerak;
- b) eponimlar(eponyms) - ixtirochilar va firma va shahar nomlari asosida.
- c) hosila (derived) – so'z yasash prefikslari (ya'ni de-, mis-, non-, pre-, pro-) va suffiks qo'shimchalar (masalan, -ism, -ize, -ization) bilan tuzilgan;
- d) yangi birikmalar (new collocations), masalan. "urban guerilla", "unsocial hours", "route fleurie".

e) frazema (phrasal) otlar yoki fe'llar – “trade-off”, “zero-in” va boshqalar. Tarjimon ularni odatda ikki yoki uch so'zga tarjima qilish orqali normallashtirishi kerak;

f) qisqartmalar (acronyms) bosh harflar yoki bo'g'inlarning birikmasi. Xalqaro qisqartmalar odatda tarjima qilinadi (masalan, EEC, CEE, EG) - milliy qisqartmalar, odatda, kerak bo'lganda, ularning ma'nosi emas, balki funksiyalarining “tarjimasi” bilan saqlanadi, masalan. CNAA-CNAA, Buyuk Britaniyadagi oliy ta'lif kollejlari (universitet bo'limgan) uchun darajalarni beruvchi organ; EDF, Fransiya elektr boshqarmasi, ZUP, ustuvor uy-joylarni rivojlantirish uchun hududlar.

g) qorishmalar (blends), ya'ni ikki so'zning kombinatsiyasi. Agar e'tirof etilgan ekvivalenti bo'lmasa, ular tarjima qilinishi kerak

h) yangi ma'noga ega bo'lgan semantik, eski so'zlar, masalan. “*sophisticated*”, “*viable*”, “*credible*”. Bular “normallashtirilgan” (ya'ni, oddiy so'z bilan tarjima qilingan) bo'lishi kerak

) qisqartmalar (abbreviation) so'zning qisqartirilgan shakli. Bular fransuz va nemis tillarida ingliz tiliga qaraganda keng tarqalgan: masalan, *Uni*, *Philo*, “*Beeb*”.

Neologizmlarning keyingi murakkab guruhi uchta guruhni o'z ichiga oladi.

▪ Birinchi guruha faqat ma'lum bir davrgacha mavjud bo'limgan, ya'ni ma'lum bir momentgacha yozilgan matnlarda uchramaydigan leksemalargina kiradi. Shunday qilib, u eng kichik leksik birliklarni o'z ichiga oladi. Masalan, “*googling*”, “*Blairite*”, “*Eurabia*” kabi so'zlar 1990-yillarning birinchi yarmida ham mavjud emas edi.

▪ Ikkinci guruha faqat ma'nosini o'zgartirgan, lekin eski shaklini saqlab qolgan, eski ma'nosi yo'qolgan yoki ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan so'zlarni ifodalaydi, masalan. veb, tarmoq, mobil va boshqalar. Bu birliklar ikkinchi darajali nominatsiya natijasidir.

▪ Oxirgi, uchinchi, guruha leksemalarni o'z ichiga oladi, ular eski ma'nolarini yo'qotmagan holda faqat bir yoki bir nechta yangi ma'no qo'shgan, ular polisemiyaning paradigmatic munosabatlarini ifodalaydi.

XULOSA

Xulosa qilishimiz mumkinki, neologizmlar fan-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'zgarishlar, rivojlanishlar natijasida yangi so'zlarga bo'lgan extiyojlarning ortishi sabab tilimizga kirib kelgan leksik birliklardir. Ularning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular hech qachon yangilanishdan to'xtamaydi bu esa bizga yangidan yangi tadqiqotlar olib borishimizga turki bo'ladi. Yana bir o'ziga xos xususiyatalardan biri tilimizga kirib kelgan barcha neologizmlarning milliy tildagi muqobil ekvivalenti bo'lmasligi mumkin, shuning uchun biz ularni tarjima qilmasdan qanday kirib kelgan bo'lsa, shunday qabul qilamiz va hech qynalishlarsiz talaffus qilamiz va oxir-oqibat kundalik umumiste'moldagi so'zlar qatoriga tushadi. Shu jihatni bilan til ijtimoiy hodisa ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining 2012 yil 10-dekabrdagi PQ-1875-sон “O'zbekiston Respublikasida Chet tillarini o'rGANISH tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2021-yil 19-maydag'i PQ-5117-sон. “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rGANISHNI ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida”gi qarori

3. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sон “ 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmoni.

4. Rozen, E.V. Zamonaviy nemis tilidagi yangi lug'at .1966, 53-61 betlar.

5. Xadeeva-Byokova AA Neologizmlarni yaratishning bir modeli haqida:(ingliz tili materiali bo'yicha)/AA Xaleeva-Byokova//universitetlararo. Generativ grammatika bo'yicha konferentsiya: Maqolalar.Hisobot-Tartu- 1967,B. 112.

6. Majidov X. Hozirgi tojik tili frazeologik birliklarining tasnifi masalasi. Toshkent 1964.-s.19-20.